ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Resume. This article provides a comprehensive theoretical and practical analysis of presupposition in literary texts. It traces the origin of the concept in philosophy, its adoption into linguistics, and its interpretation by scholars such as G. Frege, N.D. Arutyunova, V. Gak, A. Nurmonov, and Sh. Safarov. Using examples from Uzbek literature, the study demonstrates how presupposition helps to reveal implicit meanings, the inner world of characters, and their social attitudes. The research also highlights the role of various grammatical means in forming presuppositions and explores their relation to propositions and implicatures. Overall, the article substantiates the methodological significance of presupposition in the analysis of literary texts.

Резюме. В статье подробно рассмотрено явление пресуппозиции в художественных текстах с теоретической и практической точек зрения. Анализируется происхождение понятия в философии, его проникновение в лингвистику и трактовка в трудах Г. Фреге, Н.Д. Арутюновой, В. Гака, А. Нурмонова, Ш. Сафарова и других исследователей. На материале узбекской литературы показано, что пресуппозиция играет важную роль в раскрытии подтекста, выражении внутреннего мира персонажей и их социальных установок. В исследовании подчеркивается роль различных грамматических средств в формировании пресуппозиций, а также связь данного явления с пропозицией и имплицитным смыслом. В целом, статья обосновывает методологическое значение пресуппозиции в анализе художественного текста.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TOG'AY MUROD NASRIY NUTQIDA METAFORANING STATISTIK TAHLILI

Xolnazarov Umid Erkinovich,
Termiz davlat universiteti,
o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ta'kidlash kerakki, olamni idrok etishning har bir til jamoasi ongida tarixan shakllangan, barqarorlashgan va ayni shu jamoa uchun xos bo'lgan odatiy va majburiy usullari majmui olamning lisoniy manzarasini yuzaga keltiradi. Olamning lisoniy manzarasi dunyoni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usullari yig'indisi[1] o'laroq, tushunchalar maydoni ichida, asosan, qaysi madaniy nom (metafora), lingvomadaniy kod[2] (antropomorf kod, zoomorf kod, ornitomorf kod, fitomorf kod, demonomorf kod, texnomorf, teomorf kod) ustuvor ahamiyatga ega ekanligi T.Murod qissalarida lisoniy va mualliflik metaforalarining konseptual asosida namoyon bo'ladi.

Masalan, *takasoqol* uzual metaforada T.Murod soqoli qalin, yuzining iyak qismini quyuq qoplagan Bo'ri polvonning tashqi qiyofasini obrazli gavdalantirgan. Bu tushuncha o'zbek lingvomadaniyatida turg'un o'xshatish sifatida baholanadi va shu o'xshatishning negizida zoomorf kod metaforik mazmun kasb etadi. Misolga e'tibor bering: «Keng ham do'ng peshonasini, turtib chiqqan yonoqlarini siladi. *Takasoqol*ni

[1] Худойберганова Д. Тил тафаккур маданият. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – Б. 30.

[2] Lingvomadaniy kod – ushbu terminni fanda madaniyat kodlari termini bilan aralash qo'llash holatlari kuzatiladi. Lingvomadaniy kod madaniyat kodining verballashgan ko'rinishidir. Ma'lumki, verbal tilda har qanday narsani ifodalash mumkin. Verbal til o'ziga madaniyatning obrazli kodlarini singdiradi. Bunda kodning ifoda planida o'zgarish sodir bo'ladi va madaniy kodlar verballashib, lingvomadaniy kodga aylanadi. Shu sababdan uni lingvomadaniy kod deb ataganimiz ma'qul ko'rinadi. Bu haqda qarang: Савиский В.М. Лингвокультурные коды: к обоснованию понятия // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Лингвистика. – №2. – С. 57; Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. док-ри дисс... – Тошкент, 2020. – Б. 62-63.

siladi» («Yulduzlar mangu yonadi»). Ushbu qisqargan o‘xshatish muallif tomonidan o‘ylab topilayotgani yo‘q, balki o‘zbek tilining lug‘aviy negizida, ya’ni so‘zlar bazasida, sifat turkumiga oid so‘zlar orasida avvaldan bor. Lingvomadaniy jihatdan shu tushunchaning mavjud ekanligini avval-oxir o‘zbek lingvomadaniyatida o‘xshatish asosida soqollarning shaklini muayyan hayvonning shunday belgili qismiga yoki muayyan o‘simlikning xuddi shunga o‘xshash qismiga o‘xshatish odatlari, an’analari bilan izohlash o‘rinli bo‘ladi. Shuningdek, muallif metaforalaridan farqli, uning lisoniy metafora ekanligi ifodaning asosan konseptual asosga ega ekanligini yanada mustahkamlaydi.

Metafora o‘zida ikki ko‘lamli semantik to‘plam va obrazli elementni saqlovchi bilvosita ikkilamchi nominatsiyadir[1]. R.G.Piotrovskiyga nisbatan, ikkilamchi nominatsiya yoxud semiozis – mavjud belgilar uchun yangi okkazional ma’nolarning tatbiq qilinishidir. Ya’ni birlamchi lisoniy belgining denotat va signifikat sohasida yangi denotat va yangi signifikat hosil bo‘ladi va ular, o‘z navbatida, yangi konnotatni shakllantiradi[2]. Masalan, Tog‘ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» qissasida inson va hayvon o‘rtasidagi munosabatlar metaforik ifodalarda alohida jilo topgan bo‘lib, adib ko‘nglining kitobxon ko‘ngliga ko‘chib o‘tishida[3] o‘zbek lingvomadaniyatida asosiy konseptlar hisoblangan *hayot, o‘lim, ona, Vatan, muhabbat, yaxshilik, adolat, ayol*[4], shuningdek, *inson, hayvonot olami* kabi tushunchalarning metaforik ifoda ko‘lamidan joy olganligi sabab.

Boshqa bir misol: «Ota-onasi tag‘in chaqirtirdi. – Uyimizdan *ilon chiqqanmi?* – piching qildi otasi. – Yo‘q, nima edi? – talmovsiradi bolasi. – Bo‘lmasa nimaga *qorangni ko‘rsatmaysan*?» («Oydinda yurgan odamlar»). Bunda *ilon chiqqanmi?, qorangni ko‘rsatmaysan*? konseptual asosli metaforalari lingvomadaniy zaxiramizda, lingvomadaniy fondimizda bor iboralardir. Javobi ichida, ya’ni «yo‘q unaqa emas-ku?, nega kelmaysan unday bo‘lsa?» tarzli metaforik-ritorik gap o‘zbek madaniyatida predmetli kod (*qorangni ko‘rsatmaysan?*) va zoomorf kod (*ilon chiqqanmi?*) qatnashgan iboralarni hosil qilyapti. Xususan, *ilon* misolida zoomorf kodga urg‘u berilayotgani o‘zbek madaniyatida ilon, chayon, qora qurt singari tabulashgan tushunchalardan hazar qilinishi shu tushunchalardan avval-oxir qo‘rquv, hayiqish hissini yana bir bor isbotlaydi. Tarixga nazar tashlasak, qipchoq eliga mansub ko‘chmanchi turmush tarzi o‘tovda yashash sharoitini namoyon qiladi. Tabiiyki, ko‘chmanchilarning o‘tov, qora uylariga turli hasharotlar, zaharli sudralib yuruvchilarning kirib kelishi qiyin bo‘lmagan va ular bunday tushunchalarni ifodalovchi nomlardan hayiqish bilan birgalikda bunday nomlar, bunday so‘zlar ishtirok etgan iboralarga ham alohida ma’no yuklaganlar. Ya’ni «*uydan ilon chiqdimi?»* iborasida o‘zbeklarga xos qo‘rquv, bir vaqtning o‘zida bunday hayvonlar, maxluqlardan hazar qilish ma’nosi mujassam bo‘lsa, ikkinchidan, mezbonning o‘zini xuddi shu, hazar qilingan maxluqot o‘rnida ko‘rilayotganidan o‘kinchi aks etadi.

Mashhur semantiklardan biri ta’kidlaganidek, «so‘zlarning ma’noga ega bo‘lishi til sohibining faqatgina biror bir lingvistik g‘oyaning tarafdori bo‘lishi yoki ongda tug‘iladigan haqiqiy mantiqiy hodisani shakllantiruvchi mental faoliyat ta’siri emas. «Jon» Jonning ismi bo‘lishi uchun ushbu nom va uning sohibi o‘rtasida ma’lum bir bog‘liqlik bo‘lishi shart, ya’ni voqeiy dunyoda shunday bir hodisa mavjud bo‘lmog‘i darkor»[5]. Demak, *konsept shakli va voqelik o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q,* degan da’vo unchalik haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Zero, Rey Jakendorfning ta’biricha, «til konseptual tuzilmalar bilan bog‘liqligi sababli ma’no ifodalash qudratiga ega»[6]. Jumladan, T.Murodning metaforalar yordamida dunyo manzarasini chizishiga e’tibor bersak:

1. «Otamiz ellik kilocha kelmish savatni bo‘zbola yag‘riniga qo‘ydi. Bo‘zbola *ilon iz so‘qmoq*dan tepa o‘rladi... Ot seskandi, old oyoqlarini xiyol ko‘tardi, yo‘lga *bel bo‘ldi*. Qoplon otni chapdagi *echki so‘qmoq*dan soldi» («Oydinda yurgan odamlar»).

2. «– E-ye-ye, momosi, – dedi. – Shunga-da piq-piqmi? Nima, Hojar ko‘ring ichingga kirib chiqib edimi? Hojar ko‘ring nimani biladi? O‘z oti o‘zi bilan ko‘r-da! *Folchiga ishonma, suvga suyanma*!» («Oydinda yurgan odamlar»).

3. «Kuyov qaylig‘iga *o‘pka-gina bilan tikildi*. Bu tikilish mana bunday dedi: «Ha, deyish shunchalar mushkulmi? Oshnolarim *sarg‘ayib somon bo‘ldi*». («Oydinda yurgan odamlar»).

4. «Halinchak bir chap sayin-bir o‘ng sayin yuqorilab-yuqorilab turdi. Hayitlovchilar bosh kiyimlarini ushlab halinchak qaradi. Shunday bo‘lsa-da, do‘ppisi tushib ketuvchilar-da bo‘ldi, ro‘moli uchib ketuvchilar-da bo‘ldi. Qoplon *yuragini hovuchladi*. – Yo, pirim-e, yo, pirim-e, – deya pichirladi. *Og‘zidagi hol-*

[1] Скляревская Г.Н. Метафора в системе языка. – СПб.: Наука, 1993. – С.12.

[2] Пиотровский Р.Г. Лингвистический автомат (в исследовании и непрерывном обучении). – СПб.: Изд-во РГПУ, 1999. – С. 52.

[3] Тоғай Мурод қўшиқлари. От кишнаган оқшом. Тошкент – 1994, 4-бет.

[4] Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Тошкент – 2015, – Б. 67-68.

[5] Fodor J. A. Theory of Content and other Essays. – Cambridge, Mass.: MIT Press, 1990. – 98-99 pages.

[6] Jackendoff R. Foundations of Language. Brain. Meaning. Grammar. Evolution. Oxford: University Press. 2004.-306 p.

va og‘zida qoldi, bo‘g‘zidagi holva bo‘g‘zida qoldi» («Oydinda yurgan odamlar»).

Birinchi misolda *ilon iz so‘qmoq, echki so‘qmoq* zoonim kodli va *bel bo‘lmoq* antropomorf kodli milliy-madaniy konnotatsiyani aks ettirgan metaforik konstruksiyalardir. Ayniqsa, *ilon iz so‘qmoq, echki so‘qmoq* kabi lingvomadaniy birliklar o‘tmish ajdodlarimizning hayoti ko‘chmanchilik, o‘troq hayot bilan aloqador ekanligini ko‘rsatuvchi metaforik ifodalardir. Ya’ni bunday yashash tarzi Surxondaryo viloyatining ayrim tumanlari aholisiga yot emas. Zero, xoh tog‘li hudud aholisi bo‘lsin, xoh qir-adir hududlari aholisi bo‘lsin, albatta, ularning tirikchiligi chorva bilan bog‘liq bo‘lgan. Ushbu chorva elementlari borib-borib, ularning madaniyatida o‘xshatish etaloni vazifasini o‘tay boshlagan. Masalan, umri tog‘-u toshda o‘tgan odamning tasavvurida aynan tog‘-u tosh, qo‘y-echki, ilon, archa, bir so‘z bilan aytganda, inson ko‘rib yurgan, u tug‘ilib o‘sgan, u bilan birga katta bo‘lgan manzara gavdalanadi. U o‘sha manzaradan tashqaridagi olamni tasavvur qilmaydi va tabiiyki, ijodkor ham o‘zining nutqiy iste’molida, nutqiy faoliyatida, albatta, ana shu obrazlarga murojaat qilish orqali hayotiy jarayonning jonliligini va shu orqali og‘zaki (badiiy) nutqning hissiy-bo‘yoqdorligini ta’minlaydi. Chunki bitta tildan foydalanuvchilar aslida bitta madaniyat sohiblari bo‘lgani kabi, bitta madaniyat sohiblarining ildizlari ham bitta bo‘ladi. Va bitta tarixiy ildiz bir vaqtning o‘zida shu millat, etnos, elat, qabila va urug‘ning shakllanishida mavjud bo‘lgan tarixiy voqelikni ifoda etadi. Tarixiy voqelik esa alohida-alohida unsurlar evaziga yaxlitlashadi. Ya’ni bu yaxlitlik mayda-mayda obrazlardan tortib, simvol, ramzlargacha bo‘lgan butunlik, birlikni o‘zida jamlab metaforik mohiyat kasb etadi.


Ikkinchi mikromatndagi *folchiga ishonma, suvga suyanma* – bu o‘z-o‘zidan gapirayotgan maqol. Ta’kidlash joizki, xalqimizda «tush ko‘rsang, tushingni suvga ayt», degan aqidaviy qarash bor. Bu yerda ikkita narsa, ikkita talqin bor. Suv – bu tiniqlik, tozalik ramzi. Har qanday yoqimsiz, ahamiyatga ega tush suvga qarab aytilsa, go‘yoki, undagi salbiy talqin suv bilan oqib ketadi yoki suvga qarab aytilsa, fikrlarni poklaydi, tiniqlashtiradi. Xullas, bunda alohida konseptual ko‘lam (ma’lumki, folchiga bormoqlik bizning totemistik, animistik, fetishistik va shomonlik qarashlarimizda bo‘lgan. Hozirgacha bu aqidalar o‘lganicha yo‘q. Savodsiz xalq, savodi diniy nuqtai nazardan past ajdodlarimiz folga va go‘yoki taqdirini bashorat qiluvchi insonlarga alohida ahamiyat berib qarashgan va natijada, aslidagi islomning haqiqati, mohiyatini anglaganlar mana bu talqinni buzishgan, mana shu qarashni singdirishgan. Ya’ni baxt, tole’, istiqbolni Alloh beradi – bandasi emas va kelajak taqdirni faqat va faqat Alloh biladi. Uning sir-sinoati hech qachon bandasiga berilmaydi, bunday imkoniyat bandasida yo‘q) kengroq. Bu yerda to‘g‘ri ma’no bor, ammo maqolning ikkinchi, ya’ni «*suvga suyanma*» qismiga e’tibor bersak, bunda «*suyanmoq»* so‘zining o‘zi antropomorf kod (ya’ni hayvonlar suyanmaydi, inson suyanadi. Chunki bu harakat ongli bajariladi. Shuningdek, suyanmoq inson tomonidan bajarilgan harakat va bu harakat belgisining jonsiz obyektga ko‘chirilishi), bir vaqtning o‘zida antropomorf metaforani yuzaga keltirib, amalga oshmaydigan ish, harakatning obrazli ifodasi ekanligi muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi.

Uchinchi misoldagi «*o‘pka-gina bilan tikilmoq»* (insonlarning biror kishi, narsa yoki vaziyatdan norozilik kayfiyatini anglatadi) frazeologik metaforasi antropomorf kod va «*sarg‘ayib somon bo‘lmoq*» (kuta-kuta charchamoq) esa fitomorfik kod sifatida turg‘unlashgan assotsiatsiyalar asosida yuzaga keladi. Ushbu lingvomadaniy ifodalarning konseptual asosi o‘zbekona turmush tarziga borib taqaladi. Tarixan, misol uchun, Boysun tumanlarida ko‘proq mol (chorva)ga emish etishtirilgan va ularning hayoti chorva bilan bog‘liq bo‘lgan, shuningdek, o‘zlari etishtirgan agrar o‘simlikni quritish, qishga g‘amlash evaziga chorvani saqlashgan. Darhaqiqat, somon o‘t, maysa, bug‘doydan olinadi. U quritilgach, somonga aylanadi, sariq rangga kiradi. Ko‘rinadiki, insonlarning doimiy hayot tarzida shu rang, shu somonning sarg‘ayishi alohida ahamiyatga ega bo‘lib qolgan. Chunonchi, fotoapparatning fokusida nima manzara, tasvir qolib ketsa, u shuni muhrlagani kabi, insonning ko‘zi ham, shuuri ham, tafakkuri ham xuddi shunday – o‘zi ko‘rib yurgan narsani ongida muhrlaydi. Chunki inson ko‘z sektoriga tushmagan, uning nigohiga, sezgi organlariga begona bo‘lgan narsalarni tasavvur qilolmaydi. Demakki, beshta sezgi organi doimiy, muttasil nima bilan to‘qnash keladigan bo‘lsa, inson hayotida o‘sha kodlar, o‘sha o‘xshatish obrazlari muqim xarakter kasb etib boshlaydi.


To‘rtinchi mikromatn makropropozitsiyasi shuni ko‘rsatadiki, «*yuragini hovuchlamoq»* – lirik qahramonning ruhiy iztirobi, bezovtaligini ifodalovchi antropomorf kod, ayni paytda, antropomorf metaforadir. «*Og‘zidagi holva og‘zida qoldi, bo‘g‘zidagi holva bo‘g‘zida qoldi»* iborasi ham «*yuragini hovuchlamoq»* frazemasining semasiga teng bo‘lib, real vaziyatga nisbatan u to‘g‘ri ma’noni tashiyotgandek bo‘ladi, aslida esa ko‘chma ma’noda kelayotgan obrazli ifodadir. Bizga ma’lumki, har bir millatning ijtimoiy va madaniy hayoti shu millatning qadimiy madaniyatidan xabar beradi. Zero, aksar xalqlar madaniyatida oziq-ovqatga buyuk ne’mat, rizq-ro‘z sifatida ramziy munosabatda bo‘lingan. Holva (un, shakar va yog‘dan, ba’zan kunjut, mag‘iz qo‘shib tayyorlanadi – O‘TIL, 5-jild) xalqimizning milliy shirinligi bo‘lib, odatda, un-

ashtirish marosimida kuyov tomondan qiz tomonga yuboriladigan sovg‘alar tarkibida holva bo‘ladi. Bunda holvaning oqligi, ta’mi shirinligi asosga olinadi va yangi oila hayotining holvadek pok va shirin bo‘lishi niyat qilinadi. Masalan, «ingliz madaniyatida pie (pirog), rudding (pudding) va o‘zbek madaniyatida holva singari keng iste’mol qilinadigan shirinliklar»[1] har bir millatning teran dunyoqarashi, obrazli nigohi, idroki va tafakkuri mahsuli o‘laroq dunyoga kelgan lingvomadaniy kodlardir.

T.Murod badiiy nutqi (qissalari va hikoyalari) ga oid to‘plangan 806 ta metaforadan 487 tasi lingvomadaniy kod nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, eng ko‘p qo‘llanuvchi lingvomadaniy kod antropomorf kod 282 ta (58 %) bo‘lib, keyingi o‘rinlarda zoomorf 77 ta (16 %), predmetli 63 ta (13 %), mifologik 33 ta (7 %) hamda fitomorf kod 32 ta (6 %) ekanligi aniqlandi. Shuningdek, T.Murod nasriy nutqida metaforik asosli iboralar ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, 319 ta iboralardan 180 tasi (56 %) mualliflik iboralari va 139 tasi (44 %) esa uzual xarakterdagi iboralar ko‘rinishida statistik tahlil qilindi. Tahlil natijalarini quyidagi 1-2-diagrammalarda ko‘rishimiz mumkin:



1-diagramma. T.Murod badiiy nutqida qo‘llanilgan metaforalar tahlilida lingvomadaniy kodlar nisbati



2-diagramma. Metaforik asosli iboralar nisbati

[1] https://www.bonappetit.com/test-kitchen/ingredients/article/how-pie-got-its-name

1-jadval

Tog‘ay Murod badiiy nutqida qo‘llanilgan uzual (umummilliy) metaforalar

T/s	Uzual (umummilliy) metaforalar va ularning manbasi	Izohi
1	Bo‘ri polvon yosh polvonga mensimay-mensimay qaradi. *«Laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning puti yirtilgan ekan*! – deya o‘yladi Bo‘ri polvon. – Bu yosh bola-ku! O‘ylab ish qilyaptimi? Yo, *kayfi bormi*?» (Yulduzlar mangu yonadi)	Bo‘ri polvonning raqibiga nisbatan xayoliy o‘y-kechinmalari *laylakning yurishini qilaman deb, chumchuqning puti yirtilgan ekan* maqoli va *kayfi bormi* taajjub mazmunidagi kesatig‘i orqali ifodalagan. Laylak va chumchuq o‘zaro taqqoslanib, Bo‘ri polvon o‘zini laylakka, raqibi Ismoil polvonni chumchuqqa o‘xshatgan
2	Shu vaqt, devor uzra *ro‘molli boshlar qora ber*di: ayollar davraga qaray berdi. (Yulduzlar mangu yonadi)	Ko‘rindi; qaray boshladi
3	Kimda-kim uning *ko‘zini shamg‘alat qil*ib, epchillik bilan girga chopib kirsa, shu g‘olib sanaladi. (Yulduzlar mangu yonadi)	Birovni aldash va diqqat-e’tiborni susaytirishga erishish. Kuppa-kunduzi, ko‘ra-bila turib, hammaning oldida biror g‘ayriaxloqiy ishni chapdastlik bilan uddalash
4	Davraga bakovullik qilishni shu kishiga topshirsak, nima deysizlar? – Ma’qul, polvon bovaning *suyaklari davrada qotgan*! – dedi davra...Shoshma, ye*tti o‘lchab, bir kes*. Sho‘rchiliklarning *o‘ngi chapiga e’tibor qil*. Qaytarib aytaman, faqat sho‘rchiliklarga *ko‘z tikinglar*... – Bir-ikkita dadilrog‘i bilan bizning Tilovberdini davra oxiriga asra. *Yo’g‘on cho’zilib, ingichka uzilganda kunimizga yaraydi*. (Yulduzlar m. yo.)	Biror ishda ko‘p ishlagan, chiniqqan; ehtiyotkorlik bilan ish ko‘rmoq; kuzatib turmoq, ko‘zdan qochirmaslik; qiyin, qaltis vaziyatda ma’nolari orqali metaforaning xalq tafakkuri va fantaziyasining kuchini belgilovchi tafakkur usuli ekanini kuzatishimiz mumkin
5	– Xasis, Bo‘ri xasis! – dedi. – *Egachim elakli bo‘ldi, elagi tilakli bo‘ldi*! – dedi. (Ot k. o.)	Har bir narsani birovdan qizg‘anadigan, boshqalarning hojatini chiqarmaydigan qizg‘anchiq odam

Izoh: T.Murod badiiy nutqida jami 139 ta (44 %) uzual (umummilliy) metaforalar aniqlangan.

2-jadval

Shuningdek, **Tog‘ay Murod badiiy nutqida qo‘llanilgan mualliflik metaforalari**

T/s	Mualliflik metaforalari va ularning manbasi	Izohi
1	Shu, Boboqul bilan Mamat polvon juda *lanj* ekan, nima dedingiz, Bo‘ri polvon? – E, siz so‘ramang, men aytmayin! – dedi Bo‘ri polvon. – *Mag‘zava*, *lanj* ham gapmi, *mag‘zava*! (Yulduzlar mangu yonadi)	Tobi aynigan, bo‘shashgan (O‘TIL, 2-3-jildlar), shuningdek, harakati juda sekin odam

2	Bo‘ri polvon mehmon bo‘lmish tizzasiga tapillatib bir urdi. – E, bormisiz! – dedi. – Otangizga rahmat! *Polvonning xo‘rozi samovar* oladi, ha! (Yuld. m. yo.)	Polvonning xo‘rozi («polvonning eng zo‘ri, kuchlisi») ZM sidagi xo‘roz leksemasidagi «mardlik», «chekinmaslik» semalari ham dovyurak shaxsni nomlashda samara ko‘rsatadi. Samovar – kubok
3	Onamiz norozi bo‘ldi... Labini burib ming‘illadi: – Otim nimam... otdan mashina yaxshi... – dedi. – Mashinam nimam? Oti borning – qanoti bor, – dedim... *Ot bitdi – qanot bitdi.* ... Birodarlar, mashina deganlari temir!.. Joni yo‘q temir odamga el bo‘lmaydi! Temirning yuragi yo‘q-da! *Ot odamga el bo‘ladi*. Boisi, otning joni bor, yuragi bor-da! (Ot k. o.)	Oti borning – qanoti bor, ot bitdi – qanot bitdi, ot odamga el bo‘ladi kabi paremiologik alomatli gaplar orqali ot obrazining mifologik asoslari, T.Murodning xalq ishonchlari va tasavvurlari bilan aloqador qarashlari yangicha talqinda berilgan. Ot insonga eng vafodor jonzotlardan biri sifatida e’tirof etiladi. «Ot kishnagan oqshom» qissasining eng kulminatsion nuqtasida insonlar Ziyodulla kalni xo‘rlagan, tepkilagan, kaltaklagan, hattoki, o‘ldirishga chog‘langan tunda ham ot unga ko‘makka kelib o‘z sadoqatini isbotlaydi
4	Yana kim bor? – Shu, Bakirboyning Samarqandda o‘qiyotgan Jonibek uli kelgan. Yaxshi olishi bor-da. O‘tgan yili kelganda Sariosiyoni *mom* qilib edi. (Yuld. m. yo.)	Davrani qoyil qilgan g‘olib
5	Navro‘zchilar *ko‘ngli ko‘klam bo‘ldi.* Oymomo *ko‘ngli ... hamon qish bo‘ldi.* (O. yu. o.)	Ma’lumki, ko‘klam (bahor) yasharish, yangilanish, yorug‘likka, ranglarga boy fasldir. Ko‘ngilning ko‘klam bo‘lishi ko‘tarinkilikka, xursandchilikka, yaxshi kayfiyat va yangi umidlarning uyg‘onishiga ishora. Ko‘ngilning qish bo‘lishi esa sovuqlik, kayfiyatsizlik, umidsizlik tasviri
6	*Qozonlarning qopqog‘i,* Ayollarning oppog‘i, Misli olma yanog‘i – *Gulsun opamga* salom. (O. yu. o.)	Muammoli vaziyatlarni hal etuvchi, kamgap, davralarda kayvoni ekaniga ishora

Izoh: T.Murod badiiy nutqida jami 180 ta (56 %) mualliflik metaforalari aniqlangan.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda shunday xulosaga keldikki, T.Murod qissalari, umuman, nasriy nutqi milliy konseptual manzaraning tilda gavdalangan, ifoda topgan ko‘rinishlarini aks etuvchi milliy aksiologik nigoh mahsuli sifatida o‘ziga xos olamning lisoniy manzarasini tushunish imkonini beradi. Ayniqsa, metaforik nominatsiya jarayonida muallif olami o‘ziga xos madaniy-konseptual evrilishga yuz tutadi: lisoniy shaxs ongidagi olam to‘g‘risidagi tasavvurlar metafora evaziga olamni anglashning qadriyatiy tayanch nuqtasiga aylanadi. Ayniqsa, tahlil qilingan lisoniy va mualliflik metaforalarining konseptual asosi shuni ko‘rsatdiki, olamning lisoniy manzarasi dunyoni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usullari yig‘indisi o‘laroq tushunchalar maydoni ichida asosan antropomorf kod, zoomorf kod, ornitomorf kod, fitomorf kod, demonomorf kod, texnomorf, teomorf kod kabi lingvomadaniy kodlar har bir milliy tildan foydalanuvchilar jamoasining dunyoqarashida, o‘zining mental imkoniyatlarida mavjud bo‘lgan obraz, figura, shakl-shamoyillardan tanlab olinadi. Va bu muayyan tushunchalar bilan assotsiatsiyaga kirishgan holda olamning lisoniy manzarasini tushunish imkonini beradi. Zero, tilshunos olim D.Xudayberganova ta’biri bilan aytganda, madaniyat kodlari tilda asosan turg‘unlik kasb etgan birliklar – maqol, ibora, metafora va turg‘un o‘xshatishlar orqali voqelanib, ayniqsa, metaforik tasavvur orqali madaniy mazmun lisoniy mazmunga «ko‘chadi», lingvomadaniy kodga aylanadi.

Rezyume. Ushbu maqolada metaforik nominatsiya jarayonida muallif olami o‘ziga xos madaniy-konseptual evrilishga yuz tutib, lisoniy shaxs ongidagi olam to‘g‘risidagi tasavvurlar metafora evaziga olamni anglashning qadriyatiy tayanch nuqtasiga aylanishi tahliliy misollar orqali yoritilgan. Ayniqsa, tahlil qilingan lisoniy va mualliflik metaforalarining konseptual asosi shuni ko‘rsatdiki, olamning lisoniy manzarasi dunyoni idrok etish muayyan tushunchalar bilan assotsiatsiyaga kirishgan holda olamning lisoniy manzarasini tushunish imkonini beradi.

Resume. This article illustrates, through analytical examples, how in the process of metaphorical nomination the author's worldview undergoes a unique cultural and conceptual transformation. The ideas about the world in the consciousness of a linguistic individual become a valuable foundation for understanding reality through metaphor. In particular, the conceptual basis of the analyzed linguistic and authorial metaphors shows that the linguistic picture of the world can be understood by linking it to certain concepts of world perception.

Резюме. В статье на аналитических примерах показано, как в процессе метафорической номинации авторская картина мира претерпевает уникальную культурно-концептуальную трансформацию. Представления о мире в сознании языковой личности становятся ценной основой для постижения действительности посредством метафоры. В частности, концептуальная основа анализируемых языковых и авторских метафор показывает, что языковая картина мира может быть понята посредством её связи с определёнными концептами мировосприятия.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

LINGVISTIK KODLAR ARALASHUVI TUSHUNCHASI VA UNING LAKUNARLIK HODISASINI BARTARAF ETISHDAGI IMKONIYATLARI

Shaymardanova Aziza Raimjanovna,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

«Bo'shliq»lar turli madaniyat vakillari va o'z ona tillarida muloqot qilayotganlarning tushuncha uchun nom hosil qilishlarida sezilarli to'siq qo'yadi. Til va madaniy to'siqlarni bartaraf etish maqsadida, so'zlashuvchilar tomonidan ularni yengib o'tishning turli usullari ishlab chiqilgan. Bu hodisa esa lakunalarni eliminirlash (lotin tilidan. *eliminare* – istisno qilmoq, bartaraf qilmoq) deb yuritiladi.

G.A.Antipov, O.A.Donskix, I.Y.Markovina va Y.A.Sorokinlar bo'shliqlarni bartaraf etish ikki asosiy: to'ldirish va kompensatsiyalash (qoplash) usulida amalga oshirilishini ta'kidlaydi. O'z o'rnida, ayrim tadqiqotchilar o'rtasida ushbu atamalarni ajratish va talqin qilishda ham o'zaro kelishuv mavjud emas. Jumladan, I.Y.Markovina[1] lakunalarning kompensatsiyasi va ularning to'ldirilishini ikki asosli lingvistik atama (hodisa)lar sifatida talqin qiladi. I.A.Sternin esa A.Dudaning fikriga tayanib, kompensatsiya, kompensator atamalarini izohlaydi. L.A.Leonova[2], aksincha, lakunaning kompensatsiyalashni boshqasiga almashtirish orqali to'ldirish deya izohlaydi. Bu, bizning fikrimizcha, noto'g'ri talqindir.

Lakunalarni umuman, bartaraf etish (kompensatsiyalash, to'ldirish) masalasi jahon tilshunosligida kam o'rganilgan bo'lib, boshqa tillarda ham bu munozarali jarayondir (L.A.Leonovaning tadqiqoti bundan mustasno).

Lakunalarni to'ldirish retsipient uchun boshqa madaniyatga tegishli bo'lgan ayrim tushunchaning ma'nosini ochib berish jarayoni bo'lib, to'ldirish-

[1] Марковина И.Ю. Влияние лингвистических и экстралингвистических факторов на понимание текста: Дисс... канд. филол. наук. – М., 1982. – С.145.

[2] Bu haqida qarang: Леонова Л.А. Семантические и структурные аспекты антилакун в двуязычной ситуации //Структурные аспекты слова и словосочетания. – Калинин, 1980. – С. 35-42.